

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

T.Egamberdiyeva Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	7
R.Safarova, M.Abdullayev Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari va metodlari	11
J.Obidov Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati	16
F.Madraximova Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	21
X.Tojiboyeva O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	26
IQTISODIYOT	
M.Yuldasheva, A.Kolkanatov Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing	29
S.Ismoilova Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi	34
FALSAFA, SIYOSAT	
A.Yuldashov Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'рни	39
D.Raxmatova Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri (xx asrning 40-50 yillar misolida)	47
TARIX	
B.Matboboyev, A.Aloxunov Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari	53
S.To'raxo'jayev Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan	58
R.Ahmedov Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar)	63
Sh.Jumayev Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun	70
I.Xo'jaxonov Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi	74
A.Sarsenbayev, N.Turambetov Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI)	78
R.Akbarov Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy resurslardan foydalanish masalasi	85
R.Murodaliyev So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida	92
N.Turambetov Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim	98
X.Ergasheva 1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi	103
Sh.Xonimov Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga globallashtirish jarayonlarining ta'siri	109

FARG'ONA VODIYSIDA ILK URBANIZATSIYA JARAYONLARI
(arxeologik materiallar asosida)

РАННИЕ УРБАНИЗАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ (на основе архелогических материалов)

EARLY URBANIZATION PROCESSES IN FERGANA VALLEY (based on archaeological materials)

Boqijon Xoshimovich Matboboyev¹, Alisher Ahmadjonovich Aloxunov²

¹Boqijon Xoshimovich Matboboyev,

– tarix fanlari doktori, professor, O'z RFA Milliy arxeologiya markazi Samarqand arxeologiya instituti yetakchi ilmiy xodimi.

²Alisher Ahmadjonovich Aloxunov

– tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi.

Annotatsiya

Maqola Farg'ona vodiysidagi urbanizatsiya jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan. Shaharni tashkil etuvchi omillarni hisobga olgan holda mualliflar arxeologik yodgorliklarning uch guruhini ajratib, birinchi guruhni ilk shaharlar, ikkinchi guruhni eng qadimiy shaharlar, uchinchi guruhni esa, qadimiy shaharlar tashkil etishini tasniflab berganlar.

Аннотация

Статья посвящена изучению урбанизационных процессов на территории Ферганской долины. Учитывая градообразующие факторы авторы выделяют три группы археологических памятников. Первая группа первогород (илк шаҳарлар), вторая группа древнейшие города (эне қадимғи шаҳарлар), третья группа древние города (қадимғи шаҳарлар). Самым древним городом Ферганы считается городище Дальверзин.

Abstract

The article is devoted to the study of urbanization processes in the Ferghana Valley. Taking into account the city-forming factors, the authors distinguish three groups of archaeological sites. The first group is the first city (ilk shaharlar), the second group is the most ancient cities (eng kadimgi shaharlar), the third group is ancient cities (kadimgi shaharlar). Dalverzin settlement is considered to be the most ancient city of Ferghana.

Kalit so'zlar: Dalvarzin, Eylaton, Mingtepa, Pop, Xo'jand, mudofaa tizimi, ichki shahar, ark, Shaxrixonsoy, O'zganariq, Andijonsoy, saklar, o'troq dehqonchilik, ko'chmanchi chorvachilik.

Ключевые слова: Далварзин, Эйлатон, Мингтепа, Поп, Ходжент, оборонительная система, внутренний город, арк, Шахрихансай, Узганарик, Андижансай, саки, оседлое земледелие, кочевое скотоводство.

Key words: Dalvarzin, Eilatton, Mingtepa, Pop, Khujand, defensive system, inner city, Shakhrikhansay, Uzganarik, Andijansay, saki, settled agriculture, nomadic cattle breeding.

KIRISH (Введение/Introduction). Dastlabki shaharlar va ilk davlatchilikning kelib chiqishi, rivojlanishi va tanazzuli masalalari ko'pchilikni qiziqtirayotgan mavzular ichida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, aytish mumkinki, ushbu mavzular to'g'risida haqqoniy, dalil fikrlar so'nggi yillar davomida baralla aytilmoqda. Ayniqsa, ushbu masalalar O'zbekistonning Baqtriya, So'g'd, Xorazm kabi tarixiy hududlarida ancha yaxshi o'rganildi. Qolaversa, ayrim yozma manbalarda aynan bizlar keltirgan hududlarda ilk davlatchilik to'g'risida oz bo'lsa-da ma'lumotlar bor. Biroq mamlakatimizning katta hududlaridan biri bo'lmish Farg'ona vodiysi ilk shaharlari yoki davlatchilik ildizlari to'g'risida so'nggi vaqtlargacha deyarli ma'lumotlar yo'q edi. Sabab Farg'ona vodiysiga uzoq vaqt sovet tuzumi davrida qandaydir alohida ajralib turadigan, sivilizatsiyalar bir chekkasi (pereferiya) sifatida qaralib kelindi.

Biroq mazkur tarixiy jarayonlarini o'rganish qadimgi tosh davri (paleolit, mezolit, neolit) va ilk metallar davrida (eneolit, bronza, ilk temir) kam bo'lsa-da kuzatiladi. Shu vaqtgacha vodiya hududida qadimgi tosh davri qatlamlari qayd qilingan edi. Biroq mil. avv. III–II ming yil ilgari, ya'ni eneolit va ilk bronza madaniy qatlamlari va topilmalari vodiya hududida aniqlangan emas. Vodiyaning ikki uch ming yillik tarixi noma'lum bo'lib qolar edi. Oqibatda, bu borada turli-tuman taxmin va farazlar ilgari surilgan. Qadimgi eneolit va bronza davriga oid ayrim topilmalar kelib chiqishi Yaqin Sharq va Old Osiyo bilan bog'lar yoki ularning vodiya hududidan kelib chiqishiga shubha bilan qarar edi. Hatto mazkur

madaniyat vakillari Janubiy Turkmanistondan Baqtriya va So'g'd orqali Farg'ona vodiysiga ko'chganlar, degan ajabtovur fikrlar ham bor edi, har bir qarashda qandaydir haqiqat urug'lari borday tuyulardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (Литература и методология/Methods)

Taniqli farg'onashunoslar Yu.A.Zadneprovskiy va N.G.Gorbunovalar ham bu muammoning yechimi mushkulligini ta'kidlar edilar va bir umr shu masalaga e'tibor qaratdilar. Masala yechimiga o'tgan vaqtda ham, hozirgi kunda ham ikki xil asos bor: birinchisi, mavjud topilmalarning kelib chiqishi mahalliy, ikkinchisi chetdan kirib kelgan, degan fikr. Birinchi fikr jo'yali va haqiqatga yaqinlashadi. Sababi tarixiy rivojlanish bosqichlari eng qadimgi davrlardan to neolit so'nggi pallasigacha kelib, so'ngra uzilish bo'ladi. Arxeologlar ana shu uzilish nuqtasini yaqin 100 yildan beri topa olmagan edilar. Biroq, XIX–XX asrlar va XXI asr boshlarda vodiy hududidan arxeologik tadqiqotlar natijasida olamshumul topilmalar qo'lga kiritildi. Bular So'x toshtumori, Aflotun va Xok (Xok xazinasi, 6ta predmet) metall buyumlari xazinalari, tosh gira (tarozi toshlari)lar (6ta), ibtidoiy tosh haykalcha (Dalvarzin) va Shagim qabristoni materiallaridir. Bular ichida "qadoq toshlar"(giralar) va qora rangli toshdan (steatit) yasalgan predmet alohida ahamiyat kasb etadi. "Qadoq toshlar" (giralar) vodiyning bir necha nuqtasida (asosan, shimoli-sharq tomonida) topilgan. Tadqiqotchi Z.Raxmonovning ma'lumotiga ko'ra, "qadoq toshlar" O'shda 2ta, Paxtaobodda 1ta, Qorasuvda 1ta, Namangan muzeyida 1ta, Andijon muzeyida 1ta, jami respublikamizda mazkur topilmalar soni 10ga yaqin. Ular janubiy O'zbekiston (Sopoli madaniyati, Baqtriya Marg'iyona arxeologik kompleksi – BMAK), Tojikiston (Sarazm), Qozog'iston (Yettisuv), Eron hududlaridan ham aniqlangan[14:211]. Mazkur topilmalar hammasi mil. avv. III–II ming yilliklar bilan sanalanadi[13]. So'x toshtumori va ushbu "qadoq toshlar"ning bajargan vazifasi ikki xil bo'lishi mumkin va, so'zsiz, bu noyob topilmalarga farg'onashunoslikda katta kashfiyot deb qarash mumkin. Keltirilgan topilmalar Farg'ona vodiysi tarixidagi oraliq bo'shliqni to'ldiradi va uning uzluksiz davom etganini ko'rsatadi. Mualliflar N.G.Gorbunova, Yu.A.Zadnerovskiy fikrlariga tayangan holda, Chust qadimgi dehqonchilik madaniyati kelib chiqishi mahalliy asosga egaligini keltirib o'tadilar[9]. Ya'ni, Chust tipidagi madaniyatlar dehqonchilik uzoq davom etgan hududlar bilan bog'liq va ular oraliq makonlari sharqiy Farg'ona hududida bo'lishi kerak degan, xulosaga keladilar. Tosh (neolit) davri bo'yicha Sankt-Peterburglik yirik mutaxassis V.Timofeev B.X.Matboboyev bilan suhbatda xronologik jihatdan so'nggi neolit materiallari Markaziy Farg'onaning Sarijo'ga atrofiga to'g'ri kelishini va aynan shu hududdan eneolit-bronza materiallarining chiqishi mumkinligini ta'kid etadi. Ular qalin yotqiziqlar ostida qolib ketgan bo'lishi kerak.

Avvalombor, ta'kidlash joizki, qadimgi shaharlar to'g'risida vodiy tarixi, qolaversa, O'rta Osië tarixida arxeologik ma'lumot asosiy manba vazifasini bajaradi. Arxeologik yodgorliklarning shahar hosil qiluvchi belgilari fanimizda ancha mukammal o'rganilgan. Bu tamoyillar akademiklar A.Asqarov, E.Rtveladze, professorlar Yu.A.Zadneprovskiy va T.Sh.Shirinovlar tomonidan ishlab chiqilgan[1]. Ana shu belgilar, tamoyillar hisobga olinib, ushbu satrlar mualliflari O'zbekistondagi shahar maqomini olishi mumkin bo'lgan arxeologik yodgorliklarni uch guruhga bo'ladi[13:4]. Bunday yodgorliklar O'zbekiston hududida 50ga yaqin nuqtalarda qayd etilgan. Ularning ba'zilari hozirgi shaharlar ostida, ayrimlari arxeologik yodgorlik sifatida bizgacha etib kelgan.

NATIJALAR (Результаты/Results). Bizningcha ular quyidagi guruhlarga bo'linadilar:

1-guruh. Ilk shaharlar.

1) Jarqo'ton (Surxondaryo viloyati) 3500 yil bilan belgilanadi, maydoni 100 gektar;

2) Dalvarzin (Andijon viloyati) 3000–3200 yil bilan belgilanib, maydoni 25 gektar.

2-guruh. Eng qadimgi shaharlar. Tarkibiga 20dan ortiq yodgorlik kiritilgan. Ular 2300–2800 yillik tarixga ega deb hisoblanib, umumiy maydonlari 10–500 gektarga boradi. Eng yiriklari Afrosiyob 220 gektar, Erqo'rg'on 150 gektar, Eski Termiz 500 gektar, Kanka (Toshkent viloyati) 150 gektar, Eylaton (Andijon viloyati) 200 gektar. Eng kichiklari Vardanza (Buxoro viloyati) 10 gektar, Quva 12 gektar (Farg'ona viloyati).

3-guruh. Qadimgi shaharlarga 20ga yaqin yodgorlik kirib, 2000–2200 yillik tarixga egadirlar. Maydonlari 10–200 gektarni tashkil etadi. Eng kattasi Qalai Zoxaki Maron (Qashqadaryo) 200 gektar, Qavardan (Toshkent viloyati) 75 gektar, Mingtepa (Andijon viloyati) 300 gektar va Jizzax

TARIX

Qaliyatepa 30 gektar, kichiklari Eski Xavast (Sirdaryo viloyati) 10 gektar Pop (Namangan viloyati) 9 gektar. Ana shu sanab o'tilgan shaharlar silsilasida vodiydagi holatni ko'rib chiqsak. Vodiya arxeologik yodgorliklarga shahar maqomini berish uchun kerak bo'lgan belgilar XX asrning 70-yillarida ishlab chiqilgan [7:17-20; 5:51-53]. Bularga katta maydon, mukammal mudofaa sistemasi, alohida ark, dehqonchilik vohasi va hunarmandchilik markazi kabilar kiritilgan. Ana shu asosida ko'riladigan bo'lsa, ilk shahar belgilari bundan 3200–2700 yil oldin mavjud bo'lgan qadimgi dehqonchilik bilan shug'ullangan aholi madaniyati bilan bog'liq. Bu madaniyat yodgorliklarining vodiya 80dan ortig'i aniqlangan va birinchi topilgan yodgorlik nomi bilan Chust qadimgi dehqonchilik madaniyati deb atalgan. Aynan shu davrda aholi suv bo'ylarini o'zlashtirib, kichik kanallar qazib ayrim dehqonchilik vohalarini tashkil etganlar (vohalararo joylashish tizimi, ya'ni oazisnoe sistema rasselenie). Bunday vohalarning 15dan ortig'ini vodiya hududidan arxeologlar topib o'rganganlar. Bu jarayon, ayniqsa, Sirdaryoning katta irmog'i Qoradaryo yuqori va o'rta oqimida ko'proq kuzatiladi.

Qoradaryo vodiya tarixida o'ta muhim ahamiyat kasb etib, asosiy suv manbasi va dehqonchilik markazi bo'lgan, hozir ham shunday. Eng qadimgi kanallar Shahrixonsoy, Andijonsoy, O'zganariq (miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalari) [3:74; 4:193-194] va keyingi davr Ulug'nor, Musurmonquli kanallari aynan shu daryo o'zanida qurilgan [2:16]. Ushbu hududda mil. avv. II ming yillik oxirgi choragidan rivojlangan qadimgi dehqonchilik va uning zamirida shaharsozlik belgilari paydo bo'ladi. Ta'kid etish joizki, dastlabki shaharlar dehqonchilik vohalarining iqtisodiy markazi sifatida vujudga kelgan ilk shahar yodgorligi Dalvarzin sharqiy Farg'onada (Andijon viloyati) Qoradaryo yaqinida joylashgan, maydoni 25 gektar. Arxeologik tekshirishlarga ko'ra, ajdodlarimiz uni uch qismdan iborat qilib qurgan ekanlar. Uch qismli shaharning har bir bo'lagining o'z vazifasi bo'lgan. Ya'ni, 18 gektar joy odamlarning asosiy yashash joyi, 5 gektari mol-qo'y saqlaydigan qism bo'lgan. Maxsus ajratilgan 2 gektar maydonda ark joylashgan. Har bir qism alohida mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Devorlari mahobatli bo'lib, eni 4–5 metr, balandligi 2,5 metr. Devorlar yaxshi pishirilgan loyga g'isht va guvalaklar qo'shib ko'tarilgan [8:14-18]. Eng qizig'i, devorni kengaytirish va ta'mirlashda ham guvalaklardan foydalanilgan. Aytish mumkinki, O'zbekistonda qurilish materiali sifatida guvalaklarning eng qadimgisi Dalvarzinda qayd etildi. Afrosiyob va Ko'ktepadagi guvalaklar biroz keyingi to'g'ri davrga keladi. Shaharga kirish sharq tomondan bo'lgan, deb taxmin etiladi. Uch xil uy-joy qoldiqlari va shag'al tosh yotqizilgan ko'chalar topilgan. Uy-joy masalasida aytish kerakki, hozirgi vodiydagi kabi sinchli uylar bo'lgan. Buning isboti sifatida Dalvarzindan aniqlangan uy poydevori va ustunlar o'rnini keltirish mumkin. Dalvarzinda kulolchilik, to'qimachilik, toshtaroshlik, suyakka ishlov berish, metall eritish rivojlanganidan darak beruvchi juda ko'plab topilmalar aniqlangan. Ularni o'z ehtiyojidan tashqari yaqin-atroflar uchun ham ishlab chiqarilganini isbot etuvchi ko'plab dalillar mavjud. Ya'ni, sopol idishlarni bir xil shakl, naqsh bilan yasalganlarining minglab nusxasi aniqlangan. Yoki metallurgiyada ishlatilgan qumtoshdan yasalgan qoliplar (ular soni 20dan ortiq) ham bir necha yuzlab buyum quyishga mo'ljallangan bo'ladi. Demak, arxeologik jihatdan Dalvarzinda shahar maqomini olish uchun kerak belgilarning quyidagilari mavjud edi:

1. Maydoni katta 25 gektar. Bu ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot mahsuli edi.
2. Ushbu shahar murakkab tuzilgan bo'lib, u uch qismdan iborat.
3. Shahar qismlarini himoya qiluvchi ikki qator mukammal mudofaa sistemasi mavjud edi.
4. Dalvarzin hunarmandchilik markazi edi.

Xullas, bu yodgorlikni vodiyaning ilk bosh shahri – boshkenti deb hisoblash uchun dalillar yetarlicha mavjud [11:77-78].

Vodiya vodiya yana bir qadimiy shahar – bu Eylaton hisoblanadi. U sharqiy Farg'onada Qoradaryoning Qolgandaryo irmog'i bo'yida joylashgan, maydoni 200 gektar, ichki shahar hududi esa 20 gektar.

XX asr 50-yillaridagi rejaga ko'ra tashqi devorning to'rt tomoni uzunligi bir necha km.ga borgan, afsus u buzilib ketgan. Ichki devor qalinligi 4–6 metrni, balandligi 2,5 metrni tashkil etadi. Mudofaa devorlarida kuzatuv minoralarini qayd etilgan. Biroq Eylaton shahri bilan bog'liq bahsli o'rinlar mavjud. Xususan, yodgorlikning deyarli buzilib, yo'q bo'lib ketgani sabab, u to'g'rida ma'lumotlar chegaralangan. Bundan foydalangan ayrim tadqiqotchilar Eylatoni ko'chmanchi chorvadorlar (saklar) bilan bog'laydilar. Bizlar e'tiroz bildirib aytamizki, yo'q. Eylaton ko'chmanchilar shahri – yodgorligi emas edi.

Sabab birinchidan, Eylatonda qo'llanilgan quruvchilik an'analari ularni dehqon aholi tomonidan bajarilganini ko'rsatmoqda (paxsa, guvala, g'isht).

Ikkinchidan, bu erda saklarga xos triadasi – sak uchligi (ya'ni qurol-yarog', ot abzallari, hayvonlar tasviri) bir joyda topilgani yo'q. Ko'chmanchi saklar qabrlari ham aniqlangani yo'q.

Uchinchidan, Eylaton vodiyy markazida, qadimdan dehqonchilik hududi hisoblangan tekislik yerda joylashgan. Bu yer Dalvarzin va boshqa dehqonchilik bilan shug'ullangan aholi vorislari yashaydigan joy edi [6:93-94].

Ammo bizlar Eylaton madaniyati va undan keyingi davrlardagi (qadimgi Davan podsholigi) tarixiy vaziyatni hisobga olib, Farg'ona vodiysini sak–yuejilar ittifoqiga tortilganini inkor etmaymiz. Qolaversa, uning boshqaruvida ko'chmanchi harbiylar turgan bo'lishi ehtimoliga qo'shilamiz [10:53-55].

Nihoyat vodiyyda bu davr, ya'ni mil. avv. V–IV asrlarda Andijonsoy, O'zganariq kabi sun'iy kanallar qaziladi. Demak, dehqonchilik an'analari davom etmoqda edi. Buning arxeologik tasdig'i Andijon shahrida olib borilgan qazishmalar paytida (Eski shahar, Tutzor va Sujoat ko'chalari) qayd etilgan topilmalardir (sanasi mil. avv. VI–III asrlar). Albatta, bu yodgorlik suv bo'yida, xususan, Andijonsoy bo'yida bunyod etilgani haqiqatga yaqindir.

Tarixning keyingi mil. avv. IV–I asrlari yoki antik davr shaharlariga tegishli arxeologik materiallardan tashqari yozma manbalar ham paydo bo'ladi. Bular, asosan, Xitoy manbalari bo'lib (SHi-szi, Xan-shu, Xouxan-shu, Bey-shu), ularni vodiyy yodogolliklari bilan bog'lash olimlar o'rtasida bahsli hal etilgan. To'g'ri, antik davr mualliflarida, xususan Yustinda Aleksandr Makedonskiyni mil. aav. 329 yili vodiyy g'arbiy chegarasida asos solgan Chekkadagi Aleksandriya (Xo'jand) (7 kunda 6000 juft qadamli (9 km. ga yaqin) mudofaa devori qurildi) va Kir qurdirgan uchta shahar to'g'risida ma'lumotlar bor (Yustin, kn. XII, Gl. 5(12). Xitoy manbalarida vodiyydagi shaharlar to'g'risida ko'plab ma'lumotlar mavjud va ularni davriy jihatdan quyidagilarga bo'lish mumkin.

1. Birinchi – ilk manba Shi-szidagi 123-bobda, ya'ni mil. avv. II asrda vodiyyda 70tagacha katta-kichik shahar bo'lgan.

2. Milodiy eraning 25–220 yillarida Syan Xanshu, 95-bobida Farg'ona vodiysida 70dan ortiq shahar bor.

3. VII asrga oid Tan-shuning 221-bobida vodiyy hududida 6ta katta, 100tacha kichik shahar mavjud.

МУНОКАМА (Обсуждение/Discussion). Xitoy manbalaridagi katta va kichik shahar tushunchasida nima nazarda tutilgani biz uchun qorong'u. Qolaversa, vodiyyda, qadimdan shahar va qishloq o'rtasidagi farqlar yaqqol sezilmaydi [7:17-20]. Qo'shimcha ma'lumot sifatida keltirib o'tish kerakki, butun vodiyy bo'yicha shaharlar soni 40tadan ortadi, xolos. Biroq, hisob-kitoblarga ko'ra antik davr vodiyy aholisining umumiy soni 500–600 ming bo'lsa, shundan 25 foizi shaharlarda yashaganlar (125–130 ming).

Manbalarda quyidagi shaharlar keltiriladi. Ershi, Yu (Yuchen), Guyshan, 384–534 yillardagi Guyshan, 581–517 yillarda vodiyyning nomsiz poytaxti, poytaxt Gyesay Tan davri (618–907) hokim qarorgohi Xumin, nihoyat so'nggisi at-Tabariyyda (839–923) Kubo, Xo'jand, Koson, Bob (Pop) va Farg'ona shaharlari tilga olinadi. Keltirilgan nomlar mavjud arxeologik yodgorliklar va hozirgi shaharlar bilan solishtirib o'tilgan. Ershi shahri – bu Andijon viloyati Marhamat tumani markazidagi Mingtepa, Yu, bazida Yuchen Qirg'izistonning O'zgan shahri yaqinidagi Sho'rabashot, Guyshan Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Munchoqtepa, Gyesay – hozirgi Kosonsoy, Xumin – hozirgi Quva shaharlari bilan taqqoslanadilar. Bu shaharlar tarixi Xitoy manbalari bo'yicha (Xumindan tashqari) 2100–2200 yilga boradi. Vodiyydagi hozirgi mavjud yirik shaharlardan Andijon, Marg'ilon, Rishton, O'zgan, Xo'jand, Qo'qon, Pop kabilar ham ancha ko'hna tarixga egadirlar. Xususan, Andijon, Marg'ilon, O'zgan, Xo'jand, Pop, O'sh shaharlarida arxeologik qazishmalar o'tkazildi. Ulardan Xo'jand va Andijonda mil. avv. VI–IV asrlarga, Popdan milodimiz boshlariga oid materiallar aniqlangan. Qolganlarida bunchalik ko'hna materiallar hozircha topilgani yo'q.

XULOSA (Заключение/Conclusion). Demak, vodiyy qadimgi shaharlarini o'rganish, uni quyidagi xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi:

1. Tarix fanida uzoq vaqt hukm surgan vodiyyda shaharsozlik kechroq boshlangan, degan fikr asossizdir. Bunga misol Dalvarzin shahar xarobasidir. Farg'ona vodiysi O'rta Osiyodagi ilk shaharsozlik makonlaridan biridir.

TARIX

2. Farg'ona shaharsozligida kuzatilgan xususiyatlar vodiy tarixiy taraqqiyotidan ularni qo'shnilar bilan aloqasidan kelib chiqadi. Bizlar birinchi navbatda Sharqiy Turkiston (Sinsyan-Uyg'ur avtonom respublikasi) orqali o'tgan Xitoyning ta'sirini ham hisobga olishimiz kerak.

3. Vodiy shaharlari, xususan, antik va o'rta asrlarda shahar-qishloq o'rtasida farqlar kamaygan. Shuning uchun bo'lsa kerak, Tan-shuda 100dan ortiq Farg'ona shaharlari to'g'risida ma'lumotlar bor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. Самарканд, 1993. – 251 с. (Askarov A.A., Shirinov T.Sh. Early urban culture of the Bronze Age in the south of Central Asia. Samarkand, 1993. – 251 p.)
2. Жалилов С. Фарғона водийсининг суғорилиш тарихидан. – Ташкент, 1977. (Jalilov S. From the history of irrigation of the Fergana Valley. – Tashkent, 1977.)
3. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. МИА. Вып.118. – М., – Л. 1962. (Zadneprovsky Yu.A. Ancient agricultural culture of Ferghana. MIA. Issue 118. – M., L. 1962.)
4. Заднепровский Ю.А. Динамика развития оседлоземледельческой культуры Ферганы // Арал. кризис Ист геог.ретроспектива. Москва, 1991. – С.193-194. (Zadneprovsky Yu.A. Dynamics of development of the settled agricultural culture of Ferghana // Aral. crisis East geog.retrospective. Moscow, 1991.)
5. Заднепровский Ю.А. Древние города и этапы урбанизации Средней Азии Средней Азии // Зоны и этапы урбанизации. ТД РК Наманган. Ташкент, 1989. (Zadneprovsky Yu.A. Ancient cities and stages of urbanization in Central Asia Central Asia // Zones and stages of urbanization. TD RK Namangan. Tashkent, 1989.)
6. Заднепровский Ю.А. Погребальные памятники Эйлатанской культуры //Краткие сообщения. Археология Средней Азии, Кавказа и Сибири. №199. Москва, 1990. (Zadneprovsky Yu.A. Funeral monuments of the Eilatan culture // Brief reports. Archeology of Central Asia, the Caucasus and Siberia. No. 199. Moscow, 1990.)
7. Заднепровский Ю.А. Типология и динамика развития городских поселений древней Ферганы // Древний город Средней Азии. Кр. тезисы докладов. Ленинград, 1973. (Zadneprovsky Yu.A. Typology and dynamics of development of urban settlements of ancient Ferghana // Ancient city of Central Asia. Cr. abstracts of reports. Leningrad, 1973.)
8. Заднепровский Ю.А. Чустская культура Ферганы и памятники раннежелезного века Средней Азии. Автореферат докт диссер. Москва, 1978. (Zadneprovsky Yu.A. Chust culture of Ferghana and monuments of the Early Iron Age of Central Asia. Abstract of doctoral dissertation. Moscow, 1978.)
9. Исомиддинов М., Алохунов А. Фарғона водийси бронза ва темир даврида. – Фарғона: "Classik", 2021. – 184 б. (Isomiddinov M., Alokhunov A. The Fergana Valley in the Bronze and Iron Ages. - Fergana: "Classic", 2021. – 184 p.)
10. Литвинский Б.А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы // История и культура народов Средней Азии. Москва, 1976. (Litvinsky B.A. Problems of the ethnic history of ancient and early medieval Ferghana // History and culture of the peoples of Central Asia. Moscow, 1976.)
11. Матбабаев Б.Х. Ранний город Ферганы и вопросы начального этапа государственности // Археология, история и культура Средней Азии. Ташкент, 2002а. (Matbabaev B.Kh. Early city of Ferghana and issues of the initial stage of statehood // Archeology, history and culture of Central Asia. Tashkent, 2002a.)
12. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонада илк давлатчилик илдизлари // Ўзбекистон тарихи. №2. 2002. (Matboboev B.X. The roots of the first statehood in ancient Ferghana // History of Uzbekistan. №2. 2002)
13. Матбобоев Б.Х., Машрабов З.З. Андижон тарихи: (қадимги даврлардан XX аср бошларигача). –Т.: «Sharq», 2014. – 280 б. (Matboboyev B.X., Mashrabov Z.Z. History of Andijan: (from ancient times to the beginning of the XX century). –T.: «Sharq», 2014)
14. Francfort H.P. 1989. Fouilles de Shortughai. Recherches sur l'Asie Centrale protohistorique. Paris: Diffusion de Boccard. – P. 211.